

ALISHER NAVOIYGA BAG‘ISHLANGAN UMR**Asatillayeva Xadicha Rauf qizi****Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti****Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti****Arabshunoslik oliy maktabi 1-kurs talabasi****xadichaasatillayeva07@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20339303>

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk navoiyshunos olimi Suyima G‘aniyevaning hayoti va ijodi yoritiladi. Maqola davomida olimaming hayot yo‘li o‘rganilib, Alisher Navoiy ijodiga qay darajada o‘rganib tadqiq qilganlari yoritiladi. Shuningdek, Suyima G‘aniyevaning Navoiyga muhabbati orqali erishgan yutuqlari haqida ma‘lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, Navoiy, sharqshunos, olimi, izlanishlar, Abu Rayhon Beruniy.

O‘zbek adabiyotshunosligi jahon adabiyotshunosligi fani uslubida shakllanib taraqqiy topishida yuksak ilmiy ahamiyatga ega asarlari bilan xizmat ko‘rsatgan olimlardan biri Suyima G‘aniyeva bo‘ladilar. Suyima G‘aniyeva hayotlarining bahoridayoq faqat ilm yo‘li u kishining cheksiz ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishini his etdilar va shu yo‘ldangina yurishni ixtiyor etdilar. Bu tanlov bilan Suyima opa fitratan ilmtalab, ma‘rifattalab, mehnattalab inson ekanliklarini so‘zsiz namoyon etdilar.

Suyima G‘aniyeva 1932-yilda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ildi. O‘rta maktabning yettinchi sinfini tugatib, O‘rta Osiyo Davlat universitetining tayyorlov bo‘limiga o‘qishga kirgan bo‘lajak olimi 1952-yilda sharqshunoslik fakultetining Eron filologiyasi bo‘limini muvaffaqiyatli tamomlaydi. 1952-56-yillarda Leningrad Davlat universitetining Sharq fakulteti aspiranturasida tahsil oldi va yirik sharqshunos A.N.Boldirev rahbarligida “Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi III va IX majlislarining ilmiy-tanqidiy matni va adabiy-tarixiy tahlili” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.¹

Aspiranturani tamomlagan S.G‘aniyeva O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga ishga keladi va uning shundan keyingi butun ilmiy faoliyati mazkur ilm dargohi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Olimaning dastlabki asari —Alisher Navoiy kitobi bo‘lib, unda Mir Alisher Navoiyning mashaqqatli hayoti, ijodiy faoliyat va buyuk adabiy merosi ommabop uslubda bayon etilgan. Bu kitobni olimi yangi manbalardan foydalanib yozgan edi. So‘ngra Suyima G‘aniyeva “Majolis un-nafois” asarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida) kattagina so‘zboshi bilan 1961-yilda nashr etgandan va Moskva, Leningrad, Eron, Afg‘oniston, Turkiya olimlari bu kitobga juda katta qiziqish bildirib, olimadan nusxa yuborishni so‘rashgan. Bunday katta qiziqish va e‘tirofni ko‘rgan olimi “Majolis un-nafois” haqida 50ga yaqin maqolalarini o‘zbek, rus, ingliz, fors, olmon, fransuz tillarida chop ettirdi. 1962-yil olimaning - Navoiy hayoti va ijodi nomli kitobi nashrdan chiqadi. Bu kitob qayta to‘ldirilib 1968-yilda qayta chop etiladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Suyima G‘aniyevaning adabiy hayotida eng quvuchli voqealaridan biri bu 1991-yilda Tehron shahrida joylashgan – “Kohi Guliston” muzeyida saqlanyotgan Navoiyning “Navodir un-nihoya” devonini to‘rtta tilda: o‘zbek, rus, ingliz va fors tillarida yozilgan so‘z boshi bilan nashrdan chiqara olgan.²

¹ Xudoyorova N. Suyima G‘aniyeva – buyuk navoiyshunos olimi. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. (2024)

² Muxammedova F. Sharqshunos olimi Suyima G‘aniyeva hayoti va ijodi talaba nigohida. Yangi O‘zbekiston – Yangi tadqiqotlar. (2025).

Suyima G‘aniyeva Navoiy davri, uning ishtirokida yaratilgan adabiy muhit ishtirokchilari va xususiyatlarini chuqur o‘rganishga intilganlar. Shavkatli shoh va dilbar shoir Husayn Boyqaro asarlari qo‘lyozmalari va nashrlari, devoni va risolasi nashrlari bilan o‘tgan asrning oltmishinchi yillaridayoq, o‘sha paytdagi davlat siyosati Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalarga noxolis munosabatda bo‘lgan, sovet tuzumiga qadar o‘tgan hamma hukmdorlar qoralangan bir davrda shug‘ullanganlar.³

«Navoiy xonadoniga mansub shoira» (1987), «Tab‘i xub, kalomi marg‘ub» (1996), «Yetib el dardina ortuq biligi» (1996), «Gavharshodbegim», «Saroymulkxonim» (1999), «Muxammasi Mo‘min Mirzo bir g‘azali Chomy» (2000), «Boysung‘ur Mirzoning Firdavsiy «Shohnoma»siga yozgan debochasi» (1996), «Faxriy Hirotiyning «Javohir ul-ajoyib tazkirasi» (1999), «Shoh G‘arib Mirzoning yangi topilgan g‘azali» (1999), «Navoiyning katta zamondoshi Mehri Hirotiy» (1960) kabi maqolalar olima izlanishlari diapazonining kengligi va uning ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Suyima G‘aniyeva Sharqning yuzdan ortiq mashhur iste‘dod sohiblariga bag‘ishlab maqolalar yozgan Lutfiy, Gadoiy, Navoiy, Bobur, Ogahiy; forsiyda qalam surgan Nizomiy, Rumi, Jomiy, Hofiz, Sa‘diy; ozar shoirlaridan Nasimiy, Xoqoniy, Fuzuliy v. Bu san‘atkorlardan har birining o‘z ijodiy nafasi, tuyg‘u dunyosi, ruhiy mahobati, uslub yo‘li va tasvir usullari bo‘lgan. Nozikta‘b, zukko tadqiqotchi o‘laroq ana shularni Suyima G‘anieva yetarli zaylda idrok etgan va yoritib bergan.⁴

Suyima G‘aniyeva o‘zbek mumtoz adabiyoti va uning jahon madaniyatidagi o‘rni to‘g‘risida fundamental tadqiqotlar muallifi bo‘lib, 14 ta monografiya, 350 dan ortiq ilmiy va nazariy maqolalar, 20 dan ortiq o‘quv qo‘llanmalar chop etgan. Kitoblari:

- Alisher Navoiy hayoti va ijodi,
- Alisher Navoiy ijodidagi insonparvarlik g‘oyalari,
- Navoiy g‘azallarida zodagonlik motivlari,
- Navoiyning vasiyati,
- Navoiyning avtografi.

Olimaning ijodiy asarlari nafaqat O‘zbekiston, balki Rossiya, Yaponiya, Eron, Hindiston, Indoneziya kabi mamlakatlarida ham nashr etilgan. Bu orqali olima o‘zbek mumtoz adabiyoti va ulug‘ Alisher Navoiy asarlarining umumbashariy g‘oyalari, o‘ziga xosliklarini butun dunyo mamlakatlarida targ‘ib qilgan.

Davrimizning yuksak madaniy hodisasi bo‘lgan akademik nashr – Alisher Navoiy Mukammal asarlari to‘plami 20 jildligining 13-, 14-, 15-, 16-, 17-jildlari, Hazrat Navoiyning «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Nazm ul-javohir», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Arba‘in», «Siroj ul-muslimiyn», «Munojot», «Risolai tiyr andoxtan», «Nasoyim ul-muhabbat» (hammualliflikda) kabi o‘n to‘rtta asarlari matnlarini izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlab bergan allomai davron SuyimaG‘aniyeva bo‘ldilar.⁵ Navoiyning bir qator nasriy asarlarini to‘la holda ilmiy izohlari, lozim joyda tarjimalari bilan nashrga tayyorladi. Navoiy dostonlaridan “Farxod va Shirin” ham izohlari bilan tayyorlanib, yigirma jildlik tarkibida chop etildi. Ushbu nashrlarni varaqlagan har bir o‘quvchi S.G‘aniyevaning zukko, bilimdon matnshunos ekanligiga, o‘z ishiga o‘ta mas‘uliyat bilan yondoshganligi, matnlardagi har bir so‘z, har bir jumlagacha diqqat-e‘tibor bilan qaraganligiga ishonch hosil qiladi.

³ Dilorom Salohiy. (2023). Navoiyshunoslikning baxtiyor malikasi, taniqli olima Suyima G‘aniyevani yoqlab.

⁴ Ibrohim Haqqul. (2020). Navoiyshunos olima va murabbiy.

⁵ Dilorom Salohiy. (2023). Navoiyshunoslikning baxtiyor malikasi, taniqli olima Suyima G‘aniyevani yoqlab.

Filologiya fanlari nomzodi, Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti dotsenti, Toshkent Davlat Konservatoriyasi professori, O‘zR FA Til va adabiyot institutining yetakchi ilmiy xodimi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Suyima G‘aniyevaning ilmiy-pedagogik faoliyati hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori (1992), “El-yurt hurmati” ordeni (2000), bir nechta faxriy yorliqlar sohibidir.

O‘zbekiston Qahramoni, navoiyshunos olimi Suyima G‘aniyeva 86 yoshida 2018-yil 1-sentabrda vafot etdi. Va ular «Chig‘atoy» qabristonida dafn etildilar.

Xulosa: Suyima G‘aniyeva o‘zining samarali ilmiy faoliyati, boy ilmiy merosi hamda navoiyshunoslik rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida munosib o‘rin egallagan olimlardan biridir. U butun umrini Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlab, buyuk mutafakkir asarlarining mazmun-mohiyatini chuqur tadqiq etdi. Olimaning izlanishlari natijasida Navoiy asarlaridagi yuksak insonparvarlik, ma‘naviyat, komil inson g‘oyalari va badiiy mahorat ilmiy asosda keng yoritildi.

Suyima G‘aniyeva nafaqat navoiyshunos olimi, balki yosh avlodni milliy qadriyatlar va mumtoz adabiyot ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan fidoyi ustoz hamdir. Uning ilmiy tadqiqotlari, maqola va kitoblari bugungi kunda ham adabiyotshunoslar, talabalar hamda ilm izlovchilar uchun muhim manba vazifasini bajarib kelmoqda. Ayniqsa, olimaning Navoiy ijodiga bo‘lgan cheksiz muhabbati va sadoqati uning ilmiy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham u navoiyshunoslik maktabining yirik vakillaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Bugungi kunda Suyima G‘aniyevaning ilmiy merosi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u o‘zbek adabiyoti va ma‘naviyati rivojida muhim o‘rin tutadi. Uning ilm-fan yo‘lidagi mashaqqatli mehnati, boy tajribasi va ilmiy qarashlari kelajak avlod uchun ham ibrat maktabi bo‘lib qoladi. Olimaning faoliyati orqali milliy adabiyotimizning bebaho durdonalari yanada chuqurroq o‘rganildi va keng targ‘ib qilindi. Bu esa Suyima G‘aniyevaning o‘zbek ilm-fani va madaniyati taraqqiyotidagi xizmatlari nihoyatda katta ekanligini ko‘rsatadi.

References:

1. Xudoyorova N. Suyima G‘aniyeva – buyuk navoiyshunos olimi. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. (2024)
2. Muxammedova F. Sharqshunos olimi Suyima G‘aniyeva hayoti va ijodi talaba nigohida. Yangi O‘zbekiston – Yangi tadqiqotlar. (2025)
3. Dilorom Salohiy. (2023). Navoiyshunoslikning baxtiyor malikasi, taniqli olimi Suyima G‘aniyevani yoqlab.
4. Ibrohim Haqqul. (2020). Navoiyshunos olimi va murabbiy.
5. N. Xudoyorova "Devoni Foniyy"-Navoiyijodining gultoji. SAI. 2022.
6. Suyima G‘aniyeva. <https://oyina.uz/uz/generation/96>
7. Suyima G‘aniyeva. Ko‘ngil shamchirog‘i | Xurshid Davron kutubxonasi
8. Navoiyshunos olimi, O‘zbekiston Qahramoni Suyima G‘aniyeva vafot etdi. <https://kun.uz/uz/64420416>